

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.01.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

KALANXODJAYEVA KAMILAXON BOTIRXODJAYEVNA

**TURLI FUNKSIONAL ASIMMETRIYA QIYOFASIGA EGA BO‘LGAN
TALABALARDA EMOTSIONAL INTELLEKT XUSUSIYATLARI**

19.00.01 – Psixologiya tarixi. Shaxs psixologiyasi. Umumiy psixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
psychological sciences**

Kalanxodjayeva Kamilaxon Botirxodjayevna

Turli funksional asimmetriya qiyofasiga ega bo'lgan talabalarda emotsional intellekt xususiyatlari.....3

Каланходжаева Камилахон Ботирходжаевна

Особенности эмоционального интеллекта у студентов с разными типами профиля функциональной асимметрии.....27

Kalankhodjaeva Kamilakhon Botirkhodjaevna

Features of emotional intelligence of students with different types of functional asymmetry profiles.....53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....58

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.01.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

KALANXODJAYEVA KAMILAXON BOTIRXODJAYEVNA

**TURLI FUNKSIONAL ASIMMETRIYA QIYOFASIGA EGA BO‘LGAN
TALABALARDA EMOTSIONAL INTELLEKT XUSUSIYATLARI**

19.00.01 – Psixologiya tarixi. Shaxs psixologiyasi. Umumiy psixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/P972 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Safayev Nuritdin Salixovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Abdullayeva Shoira Xamidovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Boymirzayeva Dilbar Dmitriyevna
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi Davlat Universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.01.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zbekiston Milliy Universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 4-qavat, 418-xona. Tel.: (+99871) 246-52-74/faks: (+99871) 246-53-21, (+99871) 246-02-04, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zMU Bosh o‘quv binosi, “V” qism, 2-qavat, 217-xona. Tel.: (+99871) 246-67-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

D.G.Muxamedova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.S.Turakulova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

A.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ro‘y berayotgan global o‘zgarishlar va tashqi muhitning beqarorlashtiruvchi ta‘siri sharoitida butun insoniyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun mavjud ta‘lim tizimini qayta ko‘rib chiqish zarurati paydo bo‘lmoqda. YUNESKOning 2022-yilda Ispaniyada bo‘lib o‘tgan Oliy ta‘lim bo‘yicha Butunjahon konferensiyasi (WHEC2022) doirasida qabul qilingan hujjatga ko‘ra, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda oliy ta‘limning kelajakdagi rivojlanishini belgilab beradigan kelishilgan ustuvor yo‘nalishlarni sintez qilishni nazarda tutadigan yo‘l xaritasi tayyorlangan edi¹. YUNESKO mavjud tizimni qayta ko‘rib chiqish va talabalarga aniq maxsus bilimlarni berishga qaratilgan industrial ta‘lim modelidan voz kechish zarur deb hisoblaydi. Buning o‘rniga, oliy o‘quv yurtlari “murakkab muammolarni birgalikda hal qilishga qodir bo‘lgan, shuningdek, murakkab va mushtarak dunyoda to‘laqonli fuqarolar sifatida har tomonlama rivojlangan mutaxassislarni” yetishtirishlari lozim. Shuning uchun akademik an‘analar ochiq bo‘lmog‘i va boshqa ta‘lim amaliyotlari hamda tendensiyalari bilan o‘zaro aloqadorlikda bo‘lmog‘i kerak².

Jahon ta‘lim va ilmiy muassasalarida emotsional intellekt fenomeniga shaxsiy va kasbiy o‘rishga hissa qo‘shadigan, shaxsning turli yosh bosqichlarida muvaffaqiyatiga ta‘sir qiladigan, shaxslararo munosabatlarni o‘rnatish va jamiyatdagi moslashishiga ta‘sir qiladigan emotsional sohani boshqarishning eng muhim vositalaridan biri sifatida o‘rganishga alohida e‘tibor beriladi. Biroq bugungi kunda psixologiya fanida biologik omillarning emotsional intellekt rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta‘siri, xususan, sensor va motor sohalardagi lateral ustunliklarning har xil ifodalanganligi haqidagi savollarga aniq hamda yakdil javob yo‘q, holbuki, bu bosh miyadagi emotsional intellekt jarayonlarining mexanizmlarini tushunishga imkon bergan bo‘lar edi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda zamonaviy ta‘lim islohotlari o‘quv jarayonini individuallashtirishga qaratilgan. Shu munosabat bilan O‘zbekistonda uzluksiz ta‘lim tizimini muntazam ravishda takomillashtirish, zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish, ilm-fan va ta‘limni rivojlantirish sohasidagi zamonaviy tendensiyalarni hisobga olish bo‘yicha sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil 11-sentyabrda “O‘zbekiston – 2030”³ strategiyasi tasdiqlandi, unda ta‘lim tizimidagi islohotlar ustuvor vazifa sifatida belgilanib, umumiy o‘rta ta‘lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish va uning oliy ta‘lim bilan uyg‘unligini ta‘minlash zarurligi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-

¹ <https://www.universityworldnews.com/post.php?story=20220525095453173>

² <https://skillbox.ru/media/education/v-yunesko-prizvali-pereosmyslit-vysshee-obrazovanie/>

³ <https://lex.uz/ru/docs/6600404>

yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlash bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-son “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” va ushbu faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishiga, ya’ni “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy va ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Emotsional intellekt muammosi xorijiy olimlar R.Baron, D.Goulman, M.Zaydner, D.Karuzo, J.Meyer, G.Orme, P.Roberts, J.Sayarrochi, R.Sternberg, P.Selovey tomonidan faol o‘rganilgan. Rossiya psixologiya fanida emotsional intellekt tushunchasi birinchi marta G.G.Garskova tomonidan ishlatilgan. Postsovet hududida emotsional intellektni o‘rganish bilan I.N.Andreyeva, S.P.Derevyanko, N.V.Kovriga, D.V.Lyusin, M.A.Manoylova, E.L.Nosenko, A.S.Petrovskaya va boshqalar shug‘ullanadilar.

O‘zbekistonda emotsional intellekt muammolarini o‘rganish bo‘yicha K.B.Qodirov, O.D.Qodirova, E.T.Mirzajonova, Z.N.Rahmonova, D.Sobirova, B.N.To‘raqulov, U.D.To‘raxanovlar izlanishlar olib borgan.

Funksional asimmetriya va sensomotor asimmetriya qiyofasining turlari muammosi bilan B.G.Ananyev, N.N.Bragina, T.A.Dobroxotova, V.P.Leutin, A.R.Luriya, V.A.Moskvin, N.V.Moskvina, E.I.Nikolayeva, V.M.Rusalov, A.L.Sirotyuk, E.D.Xomskaya va boshqa tadqiqotchilar shug‘ullanishgan.

Mamlakatimizda ushbu masalani o‘rganish bo‘yicha D.R.G‘ulomov, B.R.Qodirov, K.B.Qodirov, S.Yu.Kiselyovlar tadqiqot olib borgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan AL-662204339 “Maktab o‘quvchilaridagi iqtidorni va kasbiy qiziqishni onlayn aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik dasturiy ta’minotni yaratish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi turli funksional asimmetriya qiyofasiga ega bo‘lgan talabalarning emotsional intellekt xususiyatlarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

talaba-yigitlarda emotsional intellektning shaxsga xos va shaxslararo tarkibiy komponentlari bosh miya yarimsharlari sensomotor markazlari faolligiga bog‘liq ravishda namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash;

talaba-qizlarda shaxsga xos va shaxslararo emotsional intellektning bosh miya sensomotor funksiyalar bo'yicha dominant yarimshari bilan o'zaro bog'liqligining qiyosiy tahlilini amalga oshirish;

talabalarda sensor va motor funksional asimmetriyaning signal tizimlari tarkibiy qismlarining namoyon bo'lishiga ko'rsatadigan ta'sirini isbotlash;

emotsional intellekt xususiyatlari hamda birinchi va ikkinchi signal tizimlarining turli tarkibiy qismlari namoyon bo'lishi o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berish.

Tadqiqot obyekti. Dissertatsion tadqiqotda turli kasbiy ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tahsil olayotgan jami 340 nafar 1-4 kurs talabalari (241 nafar qizlar va 99 nafar yigitlar), shu jumladan, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetidan – 54 nafar; Toshkent pediatriya tibbiyot institutidan – 79 nafar; O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutidan – 39 nafar; K.Behzod nomidagi Milliy san'at va dizayn institutidan – 56 nafar; M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filialidan – 60 nafar; Toshkent davlat sharqshunoslik universitetidan – 52 nafar talaba ishtirok etdilar.

Tadqiqot predmeti. Talabalarda emotsional intellekt komponentlari va funksional asimmetriya qiyofasining turlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotning maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun quyidagi metod hamda metodikalar majmuasidan foydalanildi:

Nazariy: tadqiqot muammosi bo'yicha ilmiy manbalarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish;

Empirik: K.B.Qodirovning funksional asimmetriya individual qiyofasini aniqlash bo'yicha mualliflik modifikatsiyasidagi metodikasi, B.R.Qodirovning ikki signal tizimining o'zaro nisbati diagnostikasi, D.V.Lyusinning emotsional intellekt so'rovnomasi, J.Eyverilning I.N.Andreyeva tomonidan moslashtirilgan emotsional kreativlik so'rovnomasi, V.V.Sinyavskiy, B.A.Fedorishinning kommunikativ va tashkiliy qobiliyatlarining diagnostikasi.

Ma'lumotlarni qayta ishlashning matematik-statistik metodlari (tavsiflovchi va induktiv statistika, shu jumladan, normal taqsimlanishga moslikni tekshirish bo'yicha Kolmogorov-Smirnov mezoni, ikki tanlanmani taqqoslash bo'yicha Mann-Uitni U-mezoni, bir nechta tanlanmalarni taqqoslash bo'yicha Kraskel-Uollis H-mezoni hamda Spirmen ranglar korrelyatsiyasi mezoni).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

talaba-yigitlarda emotsional intellekt va o'ng yarimshar neyrofiziologik mexanizmlari o'rtasidagi bog'liqlikka ko'ra shaxslararo emotsional intellekt komponentlarining (boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish, boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarish) o'ng qo'l motor markazlari faoliyatiga bog'liqligi, chap yarimsharning motor markazlari va o'ng yarimsharning sensor markazlari faolligi tufayli shaxsga xos emotsional intellekt komponentlarining (o'z his-tuyg'ularini boshqarish, ekspressiyani nazorat qilish) ortishi uchun emotsional intellekt komponentlari hamda yarimsharlararo sinxronizatsiyaning muhimligi isbotlangan;

talaba-qizlarda emotsional intellekt va chap yarimshar neyrofiziologik mexanizmlari o'rtasidagi bog'liqlikka ko'ra, shaxsga xos emotsional intellekt komponentlarining (o'z his-tuyg'ularini tushunish) chap qo'l motor markazlari faoliyatiga bogvliqligi, chap yarimsharning motor markazlari va o'ng yarimsharning sensor markazlari faolligi tufayli shaxslararo emotsional intellekt komponentlarining (boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish) ortishiga asoslanib shaxslararo emotsional intellekt komponentlarini ta'minlashda yarimsharlararo sinxronizatsiyaning muhimligi asoslangan;

talaba-qizlarda o'zini boshqarish, iroda va o'zini baholash kabi ikkinchi signal tizimining tarkibiy komponentlari o'ng yarimshar motor markazlari, tahliliy fikrlash esa chap yarimshar motor markazlari faolligi bilan bog'liq bo'lsa, talaba-yigitlarda bu qonuniyat qarama-qarshi yo'nalishda namoyon bo'lishi tufayli ortishi miya yarimsharlari tomonidan yetakchi signal tizimlarini ta'minlashda jinslararo farqlar mavjudligi dalillangan;

emotsional intellektning birinchi va ikkinchi signal tizimlari tarkibiy komponentlari bilan aloqadorligi, ya'ni muloqotchanlik, faollik, o'zini o'zi boshqarish, tahliliy fikrlash, iroda va o'zini o'zi baholash hamda emotsional intellektning tarkibiy komponentlari orasida musbat bog'liqlik bo'lsa, emotsionallik, xayol va xavotirlanish kabi sifatlar uning past rivojlanganligi natijasi ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

funksional asimmetriya individual qiyofasini 12ta funksional sinovlar yordamida aniqlash bo'yicha yangi yondashuv ishlab chiqilgan bo'lib, bu 5ta funksional sensomotor asimmetriya qiyofasini ajratib olishga imkon berdi;

ikkala yarimsharning neyrofiziologik mexanizmlarini hisobga olgan holda emotsional intellekt tarkibiy komponentlarini rivojlantirish bo'yicha psixologlar, o'qituvchilar, murabbiylar uchun amaliy tavsiyalar va model ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqotlari natijalarining ishonchliligi tadqiqotning ilmiy asoslangan metodologik bazasi, tadqiqotning maqsad va vazifalariga mos keladigan adekvat metodikalar majmuasidan foydalanish, emotsional intellekt va funksional asimmetriya haqidagi tasavvurlar mazmunini tahlil qilishning sifatli hamda miqdoriy metodlarning birikmasi, tanlanmaning yetarli darajada reprezentativligi, matematik statistika metodlaridan foydalanish, dissertatsion tadqiqotga asoslangan turli xil qo'shimcha metodlar va ishonchli manbalardan foydalangan holda izchil tadqiqotlar o'tkazilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, olingan ma'lumotlar emotsional intellekt, bosh miya funksional asimmetriyasi va funksional asimmetriya qiyofasining turlari haqidagi nazariy tasavvurlarni to'ldiradi. Dissertatsiya tadqiqotlarining natijalari sensomotor asimmetriyani ta'minlaydigan neyrofiziologik mexanizmlarga qarab emotsional intellekt jarayonlari va tarkibiy komponentlarining o'ziga xos xususiyatlarini tushunishga imkon beradi. Tadqiqot natijalaridan bakalavriat va magistratura sohalarida kadrlar tayyorlash bo'yicha oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini

ishlab chiqishda, psixologik fanlar bo'yicha darsliklar yaratishda, o'qituvchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida (xususan, psixodiagnostika, yosh psixologiyasi, psixofiziologiya, neyropsixologiya) foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar o'quv jarayoniga va qiyin hayotiy vaziyatlarga moslashish davrida o'ng/chap yarimsharlar ixtisoslashuviga ega bo'lgan shaxslar xulq-atvorini profilaktika hamda psixokorreksiya qilishda ishlatilishi mumkin. Funktsional asimmetriya qiyofalarining emotsional intellekt bilan o'zaro bog'liqligi, qiyofa turini aniqlash talabalarning moslashish va kommunikativ imkoniyatlarini prognoz qilishga imkon beradi. Ushbu tadqiqotlar talabalik davridagi yigit-qizlar bilan individual yoki guruhli ishlashda yordam berishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turli funktsional asimmetriya qiyofasiga ega bo'lgan talabalarda emotsional intellekt xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan dissertatsion tadqiqot natijalariga ko'ra:

funktsional asimmetriya individual qiyofasini aniqlash metodikasidan foydalangan holda, talaba-yigitlarda shaxslararo va umumiy emotsional intellektning namoyon bo'lishi o'ng yarimsharning motor markazlarining faolligi bilan, shaxslardagi emotsional intellektning ifodalanganligi esa chap yarimsharning motor markazlari va o'ng yarimsharning sensor markazlarining faolligi bilan bog'liqligi isbotlashga oid ma'lumotlar Nizomiy nomidagi TDPU qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazi "Ijtimoiy psixologiya" moduliga kiritildi (Nizomiy nomidagi TDPU qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazning 2024-yil 13-noyabrdagi IIM-259-a sonli ma'lumotnomasi) va Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi faoliyatiga tatbiq etildi (Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi faoliyati haqidagi 2024-yil 7-noyabrdagi 03/179-sonli ma'lumotnoma). Natijada emotsional intellektning shaxslardagi va shaxslararo tarkibiy qismlarining namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlashga sharoit yaratilgan. Bundan tashqari, emotsional intellektning bosh miyaning dominant yarimshari bilan o'zaro bog'liqligining qiyosiy tahlilini amalga oshirish imkoni kengaytirilgan va Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi xodimlarining, maqsadli guruh bolalari bilan ishlaydigan mutaxassislarining bolalar hamda fuqarolarning psixologik diagnostikasini o'tkazish bo'yicha malakalarini oshirishga imkon berilgan;

funktsional asimmetriya individual qiyofasini aniqlash metodikasidan foydalangan holda, talaba-qizlarda shaxslararo emotsional intellektning namoyon bo'lishi chap yarimsharning motor markazlari va o'ng yarimsharning sensor markazlarining faolligi bilan, umumiy va shaxslardagi xos emotsional intellektning ifodalanganligi chap yarimsharning motor markazlarining faolligi bilan bog'liqligi isbotlashga oid ma'lumotlar Nizomiy nomidagi TDPU qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazi "Ijtimoiy psixologiya" moduliga kiritildi (Nizomiy nomidagi TDPU qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazning 2024-yil 13-noyabrdagi IIM-259-a ma'lumotnomasi) va Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi faoliyatiga joriy etildi (Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi faoliyati haqidagi 2024-yil 7-noyabrdagi 03/179-sonli ma'lumotnoma). Natijada sensorli va motorli

funksional asimmetriyaning talabalarda signal tizimlari tarkibiy qismlarining ustunligiga bo'lgan ta'sirini o'rganish samaradorligi oshgan hamda Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi xodimlarining, maqsadli guruh bolalari bilan ishlaydigan mutaxassislarning bolalar va fuqarolarning psixologik diagnostikasini o'tkazish bo'yicha malakalarini oshirishga erishilgan;

talaba-qizlarda o'zini o'zi boshqarish, iroda va o'zini o'zi baholash kabi ikkinchi signal tizimining tarkibiy qismlari o'ng yarimsharning motor markazlari, tahliliy fikrlash esa chap yarimsharning motor markazlari faolligi bilan bog'liq bo'lsa, talaba-yigitlarda bu qonuniyat qarama-qarshi yo'nalishda namoyon bo'lishi, ya'ni o'zini o'zi boshqarish, iroda va o'zini o'zi baholash chap yarimsharning motor markazlari, tahliliy fikrlash esa o'ng yarimsharning motor markazlari faolligi tufayli ortishi statistik jihatdan asoslangan oid ma'lumotlar Nizomiy nomidagi TDPU qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazi "Ijtimoiy psixologiya" moduliga kiritildi (Nizomiy nomidagi TDPU qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazning 2024-yil 13-noyabrdagi PIM-259-a ma'lumotnomasi) va Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi faoliyatiga joriy etildi (Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi faoliyati haqidagi 2024-yil 7-noyabrdagi 03/179-sonli ma'lumotnoma). Natijada sensorli va motorli funksional asimmetriyaning talabalarda signal tizimlari tarkibiy qismlarining ustunligiga bo'lgan ta'sirini o'rganish samaradorligi oshgan va Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi xodimlarining, maqsadli guruh bolalari bilan ishlaydigan mutaxassislarning bolalar va fuqarolarning psixologik diagnostikasini o'tkazish bo'yicha malakalarini oshirishga imkon berilgan;

emotsional intellektning birinchi va ikkinchi signal tizimlarining tarkibiy qismlari bilan aloqadorligi, ya'ni muloqotchanlik, faollik, o'zini o'zi boshqarish, tahliliy fikrlash, iroda va o'zini o'zi baholash emotsional intellektning tarkibiy qismlari bilan musbat bog'liq bo'lsa, emotsionallik, xayol va xavotirlanish kabi sifatlar uning past rivojlanganligi oqibati ekanligi korrelyatsion tahlili yordamida isbotlashga oid ma'lumotlar Nizomiy nomidagi TDPU qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazi "Ontogenez va rivojlanish" moduliga kiritildi (Nizomiy nomidagi TDPU qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazning 2024-yil 13-noyabrdagi PIM-259-a ma'lumotnomasi) va Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi faoliyatiga tatbiq etildi (Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi faoliyati haqidagi 2024-yil 7-noyabrdagi 03/179-sonli ma'lumotnoma). Natijada emotsional intellektning xususiyatlari hamda birinchi va ikkinchi signal tizimlarining turli tarkibiy qismlarining ustunligi o'rtasidagi munosabatlar majmuasini ochib berishga erishilgan hamda Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi xodimlarining, maqsadli guruh bolalari bilan ishlaydigan mutaxassislarning bolalar va fuqarolarning psixologik diagnostikasini o'tkazish bo'yicha malakalarini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7ta ilmiy va ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan, 4ta xalqaro va 4ta respublika konferensiyalarida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan

ilmiy nashrlarda 4ta ilmiy maqola, jumladan, 2tasi respublika va 2tasi xalqaro jurnallarda chop etilgan.

Tadqiqot tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Asosiy matnning hajmi 137ta betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi asoslanadi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilanadi, tadqiqot obyekti va predmeti ajratiladi, muammoning o'rganish darajasi, shuningdek, tadqiqot metodlari tavsiflanadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan, olingan natijalarni aprobatsiya qilish va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Funksional asimmetriya va emotsional intellekt qiyofasini tadqiq qilishning nazariy sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida bosh miya funksional asimmetriyasi va funksional asimmetriya qiyofalari haqidagi umumiy tasavvurlar bayon etilgan. Emotsional intellekt va emotsional kreativlik tushunchalarining mohiyati ochib berilgan. Funksional asimmetriya qiyofasi va shaxs psixoemotsional xususiyatlari o'zaro bog'liqligi bo'yicha tadqiqotlar haqida umumiy ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarda funksional asimmetriya qiyofalari va emotsional intellekt xususiyatlarini o'rganishning metodologik jihatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobi empirik tadqiqotlarning metodologik asoslari va bosqichlarni tashkil etishga, funksional asimmetriya qiyofasi va talabalarda yetakchi signal tizimini aniqlash metodikalarini qo'llashning birlamchi natijaslariga, talabalarda emotsional va kommunikativ xususiyatlarni tadqiq qilish natijalarini dastlabki tahlil qilishga bag'ishlangan.

Jahon amaliyotida emotsional intellektni tadqiq qilish muammosiga bo'lgan metodologik yondashuvlar tahlil qilingan, ular orasida J.Meyer, P.Salovey, D.Karuzo, D.Goulman, R.Bar-On, D.V.Lyusin va boshqalarning konsepsiyalari mavjud. Shuningdek, V.M.Mosidze, A.P.Chuprikov, A.B.Kogan va G.A.Kurayev, Ye.D.Xomskaya, N.N.Bragina va T.A.Dobroxotova, V.P.Leutin hamda Ye.I.Nikolayeva, V.L.Bianki va boshqa olimlar tomonidan funksional asimmetriyani tadqiq qilishga bo'lgan yondashuvlar ham ko'rib chiqilgan.

Dissertatsiya tadqiqotida tanlangan metod va metodikalardan foydalanish masalalari tahlil etilgan hamda asoslangan. K.B.Qodirovning funksional asimmetriya qiyofasini aniqlash bo'yicha mualliflik modifikatsiyasidagi metodikasi batafsil tavsiflangan, unga ko'ra barcha respondentlar funksional sensomotor asimmetriya qiyofasining 5 ta turiga bo'lingan.

B.R.Qodirovning ikki signal tizimining nisbatlarini aniqlash metodikasi batafsil tavsiflangan. Kraskel-Uollis H-mezoni bo'yicha natijalarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, talaba-qizlarda ko'proq emotsionallik, tasavvur, obrazli xotira, xavotir va analiz-sintez faoliyati (ASF) rivojlangan, talaba-yigitlarda esa analitik

fikrlash kuchli, bu erkaklarda chap miya funksiyalarining yuqori faolligi va ayollarda o'ng miya funksiyalarining yuqori faolligi bilan bog'liq. Shuningdek, aktyorlik san'ati yo'nalishi bo'yicha talaba-qizlar va talaba-yigitlar o'rtasida bir qator signal tizimi nisbati shkalalari bo'yicha ko'rsatkichlar aniqlandi.

Emotsional intellekt darajasini aniqlash uchun D.V.Lyusinning EmIn emotsional intellekt so'rovnomasidan foydalanilgan. Emotsional kreativlik darajasini aniqlash uchun J.Eyverillning I.N.Andreyeva tomonidan moslashtirilgan ECI emotsional kreativlik so'rovnomasi qo'llanilgan. Kommunikativ va tashkiliy qobiliyatlarni diagnostika qilish uchun V.V.Sinyavskiy, B.A.Fedorishinning KOS-2 metodikasi qo'llanilgan. Emotsional intellektni aniqlash metodikasi bo'yicha natijalarning statistik tahlil ma'lumotlariga ko'ra, qizlarda shaxslararo intellekt, o'g'il bolalarda esa shaxslardagi intellekt ko'proq rivojlanganligi aniqlandi. Shu bilan birga, tibbiyot sohasidagi talaba-qizlarda emotsional intellektning yuqori ko'rsatkichlari kuzatiladi, bu ularning kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan emotsional intellekt bilan bog'liq ba'zi fazilatlarining mavjudligi bilan bog'liq. Bunda emotsional kreativlik darajasi, asosan, talaba-yigitlarga qaraganda talaba-qizlarda ko'proq rivojlangan. Biroq tadqiqot davomida tashkiliy va kommunikativ qobiliyatlar darajasi, jinsiy farqlar va ta'lim yo'nalishlari o'rtasida bog'liqlik aniqlanmadi.

Uchinchi bob **“Turli funksional asimmetriya qiyofasiga ega bo'lgan talabalarda emotsional intellektning xususiyatlarini empirik tadqiq qilish natijalari”** deb nomlangan bo'lib, funksional asimmetriya qiyofasining talabalardagi emotsional intellekt komponentlari bilan o'zaro bog'liqligini, shuningdek, ularning ikki signal tizimining o'zaro bog'liqligi, emotsional kreativlik, kommunikativ va tashkiliy qobiliyatlarni o'rganishga bag'ishlangan.

D.V.Lyusinning EmIn so'rovnomasi shkalalari ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilishda 12 ta funksional sinovning har biri uchun, Mann-Uitnining U mezoniga ko'ra, talaba-yigit va talaba-qizlarda emotsional intellekt tarkibiy komponentlari alohida funksional sinovlar bo'yicha chap yoki o'ng tomonni afzal ko'rishga bog'liqligi aniqlandi.

1-jadval natijalariga ko'ra, “Kaft va barmoqlarni birlashtirish” funksional sinovida talaba-yigitlarda emotsional intellektning “O'z emotsiyalarini boshqarish” ($U=908,5$; $p<0,05$) va “Shaxsga xos emotsional intellekt” ($U=892,5$; $p<0,05$) kabi tarkibiy komponentlari o'ng bosh barmog'ini barmoqlarni ustidan qo'yishni afzal biladiganlarda yuqori ekanligini ko'rish mumkin.

1-jadval

Talaba-yigitlarda “Kaft va barmoqlarni birlashtirish” funksional sinovi natijalari bo'yicha D.V.Lyusinning EmIn so'rovnomasining shkalalari ko'rsatkichlarini taqqoslash (Mann-Uitni U mezoni)

Shkalalar (yigitlar guruhi)	Kaft va barmoqlarni birlashtirish (o'rtacha ranglar)		U	p
	Chap bosh barmoq (n=47)	O'ng bosh barmoq (n=52)		
O'z emotsiyalarini boshqarish	43,3	56	908,5	0,027*
Shaxsga xos emotsional intellekt	43	56,3	892,5	0,021*

“Bir oyoqni ikkinchisi ustiga qo‘yish” funksional sinovi bo‘yicha 2-jadvalning natijalariga ko‘ra, talaba-yigitlarda “Boshqalarning hissiyotlarini tushunish” (U=612,5; p<0,01), “Boshqalarning hissiyotlarini boshqarish” (U=697; p<0,05), “Shaxslararo emotsional intellekt” (U=622; p<0,01), “His-tuyg‘ularni tushunish” (U=669; p<0,05) va “Umumiy emotsional intellekt darajasi” (U=739,5; p<0,05) kabi emotsional intellektning tarkibiy qismlari chap oyog‘ini o‘ng oyog‘ini ustiga qo‘yishni afzal biladiganlar uchun yuqori.

2-jadval

Talaba-yigitlarda “Bir oyoqni ikkinchisi ustiga qo‘yish” funksional sinovi natijalari bo‘yicha D.V.Lyusinning EmIn so‘rovnomasining shkalalari ko‘rsatkichlarini taqqoslash (Mann-Uitnining U mezon)

Shkalalar (yigitlar guruhi)	Bir oyoqni ikkinchisi ustiga qo‘yish (o‘rtacha ranglar)		U	p
	Chap oyoq (n=28)	O‘ng oyoq (n=71)		
Boshqalarning hissiyotlarini tushunish	63,6	44,6	612,5	0,003**
Boshqalarning hissiyotlarini boshqarish	60,6	45,8	697	0,021*
Shaxslararo emotsional intellekt	63,3	44,8	622	0,004**
His-tuyg‘ularni tushunish	61,6	45,4	669	0,011*
Umumiy emotsional intellekt darajasi	59,1	46,4	739,5	0,048*

Izoh: * p<0,05; ** p<0,01

Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, umumiy emotsional intellekt darajasi, ayniqsa, uning shaxslararo tarkibiy komponentlarining shakllanganligi chap oyoq ustunligini ta’minlovchi miya mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liq (o‘ng yarimshar motor sohalarining faolligi). Bu noverbal ma’lumotlarni qayta ishlash, xususan, yuz ifodalarini, imo-ishoralarni tushunish va ovozda ohanglarni tanib olish o‘ng yarimshardagi mexanizmlar orqali amalga oshirilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuningdek, u chap yarimshar mexanizmlariga qaraganda emotsional jarayonlarning idrok etilishi va kechishiga hamda shaxslararo munosabatlarni o‘rnatishga ko‘proq “ixtisoslashgan” ko‘rinadi.

Keyingi bosqichda D.V.Lyusinning EmIn emotsional intellekt so‘rovnomasi shkalalari va yetakchi qo‘l, oyoq, quloq, ko‘z, shuningdek, funksional asimmetriya individual qiyofasi bo‘yicha Kraskel-Uollis H mezoniga muvofiq qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Talaba-yigitlarda sezilarli farqlar faqat yetakchi quloq bo‘yicha aniqlangan.

3-jadvalga ko‘ra, ekspressiyani nazorat qilishning yuqori darajasi (H=8,79; p<0,05), shaxsga xos emotsional intellekt (H=8,18; p<0,05) va hissiyotlarni boshqarish (H=8,12; p<0,05) mutlaqo chap tomonni (chap quloqni) afzal ko‘ruvchilarda aniqlangan, asosan, chap tomonni, ayniqsa, o‘ng tomonni va mutlaqo o‘ng tomonni afzal ko‘ruvchilarning emotsional intellekt shkalasi bo‘yicha ko‘rsatkichlari sezilarli darajada past bo‘lib chiqdi hamda bir-biridan unchalik farq qilmadi.

3-jadval

Talaba-yigitlarda yetakchi quloq ko'rsatkichlari bo'yicha "Ekspressiyani nazorat qilish", "Shaxsga xos emotsional intellekt", "Hissiyotlarni boshqarish" shkalalarini taqqoslash (Kruskal-Uollisning H mezon)

Ko'rsatkichlar (yigitlar guruhi)	Yetakchi quloq (o'rtacha ranglar)				H	p
	Mutlaqo chap ustunlik (N=7)	Asosan chap ustunlik (N=32)	Asosan o'ng ustunlik (N=26)	Mutlaqo o'ng ustunlik (N=34)		
Ekspressiyani nazorat qilish	79,93	44,92	48,25	49,96	8,79	0,032*
Shaxsga xos emotsional intellekt	77,5	43,33	49,87	50,72	8,18	0,042*
Hissiyotlarni boshqarish	72,57	40,77	53,58	51,31	8,12	0,044*

Izoh: * $p < 0,05$

Olingan natijalarga asosan xulosa qilishimiz mumkinki, talaba-yigitlarda emotsional intellektning aksariyat tarkibiy qismlari ("Ekspressiyani nazorat qilish", "Shaxsga xos emotsional intellekt", "Hissiyotlarni boshqarish") neyrofiziologik mexanizmlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular verbal va noverbal ma'lumotlarni idrok etishda chap quloqning (o'ng yarimsharning) mutlaqo ustunligini ta'minlaydi.

Talaba-qizlar o'rtasida D.V.Lyusinning EmIn so'rovnomasi shkalasi ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlilini o'tkazishda Mann-Uitni mezon bo'yicha 12 ta funksional sinovning har biridan "Bir ko'zini yumish" hamda "Yaxshiroq eshituvchi quloq" funksional sinovlari bo'yicha o'ng va chap tomonni ustun ko'rish o'rtasida sezilarli farqlar aniqlandi (4- va 5-jadvallarga qarang).

4-jadval

Talaba-qizlarda "Bir ko'zini yumish" funksional sinovi natijalari bo'yicha D.V.Lyusinning EmIn so'rovnomasi shkalalari ko'rsatkichlarini taqqoslash (Mann-Uitnining U mezon)

Shkalalar	Bir ko'zini yumish (o'rtacha ranglar)		U	p
	Chap ko'z (n=102)	O'ng ko'z (n=139)		
Boshqalarning hissiyotlarini tushunish	133,9	111,5	5773	0,014*
Shaxslararo emotsional intellekt	131,9	113	5981,5	0,038*

Mazkur ikkala funksional sinov bo'yicha talaba-qizlarda EmIn shkalasi ko'rsatkichlarini taqqoslash natijalariga ko'ra, "Boshqalarning hissiyotlarini tushunish" ($U=5773$; $U=5704$; $p < 0,05$) va "Shaxslararo emotsional intellekt" ($U=5981,5$; $U=5595$; $p < 0,05$) ko'rsatkichlarining oshishi chap ko'z hamda chap quloqni afzal ko'rganlarda aniqlandi.

5-jadval

Talaba-qizlarda “Yaxshiroq eshituvchi quloq” funksional sinovi natijalari bo‘yicha D.V.Lyusinning EmIn so‘rovnomasi shkalalari ko‘rsatkichlarini taqqoslash (Mann-Uitning U mezoni)

Shkalalar	Yaxshiroq eshituvchi quloq (o‘rtacha ranglar)		U	p
	Chap quloq (n=88)	O‘ng quloq (n=153)		
Boshqalarning hissiyotlarini tushunish	132,7	114,3	5704	0,048*
Shaxslararo emotsional intellekt	133,9	113,6	5595	0,029*

Izoh: * $p < 0,05$

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, talaba-qizlarda ham, talaba-yigitlarda ham shaxslararo emotsional intellektning yetakchi tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaralishi mumkin bo‘lgan boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini tushunish o‘ng yarimsharning neyrofiziologik mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liq. Biroq ularning farqi shundaki, talaba-yigitlarda bunday munosabatlar motor, talaba-qizlarda esa sensor sinovlar orqali aniqlangan. Bu erkaklar va ayollar o‘rtasidagi mavjud jinslararo farqlarni ko‘rsatishi mumkin, erkaklarda ko‘proq harakatli va kinestetik funksiyalar rivojlangan, ayollarda esa vizual va eshitish funksional tizimlari eng ko‘p shakllangan.

Talaba-qizlarda D.V.Lyusinning EmIn so‘rovnomasi shkalalari yetakchi qo‘l, oyoq, quloq, ko‘z asimmetriyasi, shuningdek, funksional asimmetriya individual qiyofasi bo‘yicha Kraskel-Uollis H-mezoni yordamida taqqoslanganida sezilarli farqlar faqat motor asimmetriyasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha aniqlandi (6-jadvalga qarang).

6-jadval

Talaba-qizlarda D.V.Lyusinning EmIn so‘rovnomasi shkalalarini motor asimmetriyasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha taqqoslash (Kraskel-Uollisning H mezoni)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar				H	p
	Asosan chap tomon ustunligi (N=23)	Aralash ustunlik (N=41)	Asosan o‘ng tomon ustunligi (N=152)	Mutlaqo o‘ng tomon ustunligi (N=24)		
Boshqalarning hissiyotlarini tushunish	116,04	99,28	129,77	102,29	8,32	0,040*
O‘z his-tuyg‘ularini tushunish	82,80	110,21	129,92	114,54	10,71	0,013*
Shaxsning ichki emotsional intellekti	87,89	103,91	130,28	118,15	10,47	0,015*
His-tuyg‘ularni tushunish	99,24	97,28	133,24	99,83	14,02	0,003**
Umumiy emotsional intellekt darajasi	100,70	96,52	132,55	104,10	12,69	0,005**

Izoh: * $p < 0,05$

Olingan natijalarga ko‘ra, “Boshqalarning hissiyotlarini tushunish”, “O‘z his-tuyg‘ularini tushunish”, “Shaxsning ichki emotsional intellekti”, “His-tuyg‘ularni

tushunish”, “Umumiy emotsional intellekt darajasi” kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha motor sinovlarda, asosan, o‘ng tomonni afzal ko‘ruvchi talaba-qizlarning natijalari boshqalarga qaraganda yuqori ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, ushbu komponentlar bo‘yicha eng past ko‘rsatkichlar, asosan, chap tomonni afzal ko‘ruvchilar, shuningdek, motor sinovlarda aralash ustunlikka ega bo‘lgan talabalarda qayd etildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, qizlar o‘zlarining va boshqalarning hissiyotlarini tushunish, shaxslararo va shaxsning ichki emotsional intellekt tarkibiy qismlari, shuningdek, umumiy emotsional intellektning yuqori darajalari harakat funksiyalarida o‘ng oyoqlar va qo‘llarning (chap yarimsharning) ustunligini ta‘minlovchi neyrofiziologik mexanizmlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lar ekan. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘zini o‘zi anglash va o‘zini o‘zi refleksiya qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish kabi “chap yarimsharning” aqliy operatsiyalari o‘zining va boshqalarning hissiyotlarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi, bu esa oxir-oqibat umumiy emotsional intellektning yuksak rivojlanishida namoyon bo‘lishi mumkin.

Turli funksional asimmetriya qiyofasiga ega bo‘lgan talabalarda emotsional intellektni o‘rganish bo‘yicha olingan ma‘lumotlarni umumlashtirgan holda emotsional intellekt jarayonlarining kechishida ikkala yarimsharning mexanizmlari muhim rol o‘ynaydi degan xulosaga kelish mumkin. Shu bilan birga, talaba-yigitlarda shaxslararo va umumiy emotsional intellekt o‘ng yarimsharning neyrofiziologik mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liqligini ta‘kidlash mumkin, bunda emotsional intellektning shaxslararo tarkibiy qismlari, asosan, ikkala yarimshar funksional markazlarining o‘zaro ta‘sirlashuv imkoniyatlari tufayli rivojlanadi (7-jadvalga qarang).

7-jadval

Talaba-yigitlarda emotsional intellekt komponentlarining miya yarimsharlari bo‘yicha taqsimlanishi

Namunalar	Chap yarimshar	O‘ng yarimshar
Motor namunalar	Shaxsning ichki EI	Shaxslararo EI Umumiy EI
Sensor namunalar		Shaxsning ichki EI

Boshqa tomondan, talaba-qizlarda emotsional intellektning shaxslararo tarkibiy qismlarini rivojlantirishda ikkala yarimsharning neyrofiziologik mexanizmlari muhim rol o‘ynaydi. Biroq emotsional intellektning shaxslararo tarkibiy qismlari, shuningdek, umumiy emotsional intellekt, asosan, chap yarimsharda joylashgan funksional markazlarning faolligi bilan bog‘liq (8-jadvalga qarang).

Olingan ma‘lumotlarni erkaklar va ayollarda neyrofiziologik funksiyalarni amalga oshirishdagi jinslararo farqlar hamda psixik jarayonlarning kechish xususiyatlari bilan izohlash mumkin. Masalan, yigitlarda shaxs ichki emotsional intellekt komponentlari ko‘proq namoyon bo‘lishi ko‘rsatilgan bo‘lib, bu ko‘pgina tadqiqotlarning natijalari bilan mos keladi. Mazkur tadqiqotlarda erkaklarning o‘z

emotsiyalarini ixtiyoriy ravishda boshqarish, ularni nazorat qilish, o'z hissiyotlariga ta'sir o'tkazish, kechinmalarning davomiyligi va/yoki intensivligini nazorat qilish, o'zlarida ijobiy kechinmalarni qo'llab-quvvatlash hamda salbiy kechinmalarni nazorat qilish qobiliyati qayd etilgan; shuningdek, ular o'z emotsiyalarining tashqi, noverbal shaklda namoyon bo'lishini – mimika, imo-ishoralarini juda yaxshi nazorat qila oladilar.

8-jadval

Talaba-qizlarda emotsional intellekt komponentlarining miya yarimsharlari bo'yicha taqsimlanishi

Namunalar	Chap yarimshar	O'ng yarimshar
Motor namunalar	Shaxsning ichki EI Umumiy EI Shaxslararo EI	
Sensor namunalar		Shaxslararo EI


Ikkinchi tomondan, qizlarda shaxslararo emotsional intellekt komponentlari ko'proq namoyon bo'ladi: ular boshqalarning emotsiyalari va tuyg'ularini yaxshi tushunadilar hamda ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni yaxshi anglaydilar; boshqalarga hamdardlik bildirishga va ularga sherik bo'lishga qodir bo'lib, boshqa odamlar bilan o'zlarini identifikatsiya qila oladilar va ularning kechinmalarini his qila oladilar, ularni yaxshi tushuna oladilar. Aytish mumkinki, qizlar boshqalarning emotsiyalariga muvaffaqiyatli ta'sir o'tkazish, ularni ma'lum bir tarzda nazorat qilish, ma'lum emotsional holatlarni keltirib chiqarish, qo'llab-quvvatlash yoki to'xtatish qobiliyati bilan ajralib turadilar, shuningdek, o'zlarining hissiyotlari va tuyg'ularini yaxshiroq anglaydilar hamda ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni biladilar, ammo shunga qaramay, har doim ham ularga ta'sir o'tkaza olmaydilar va ularni boshqara olmaydilar, shuningdek, ularning noverbal tarzda namoyon bo'lishini nazorat qila olmaydilar. Bizning tadqiqotda ushbu ma'lumotlar yigitlarda ikkala yarimsharning yuqori darajadagi faolligi yarimsharlararo sinxronizatsiyani ta'minlashi nuqtayi nazaridan tasdiqlangan, buning natijasida esa shaxs ichki emotsional intellekt komponentlarining rivojlanish darajasi oshadi, qizlarda esa – shaxslararo emotsional intellekt komponentlarining yuqori ko'rsatkichlari namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ushbu farqlarga qaramay, ikkala yarimsharning markazlari birgalikda va birlikda emotsional intellektning barcha tarkibiy qismlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini istisno qilmaslik kerak.

Ikki signal tizimining nisbati xususiyatlari va funksional asimmetriya individual qiyofasi o'rtasidagi aloqani aniqlash uchun B.R.Qodirovning ikkita signal tizimining nisbati bo'yicha so'rovnomasi shkalalari ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili Mann-Uitni U mezoni bo'yicha 12 ta sinovning har biri bilan, talaba-yigitlar va talaba-qizlarda alohida o'tkazildi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, alohida shkalalar bo'yicha chap yoki o'ng tomonning ustunligi bilan bog'liqlik mavjud va sezilarli farqlar aniqlangan. Natijalarni talqin qilishni boshlashdan oldin, shuni ta'kidlash kerakki, B.R.Qodirovning ikkita signal tizimining nisbati metodikasining barcha shkalalari uchun teskari baholash shkalalari qo'llaniladi,

ya'ni shkalalar bo'yicha past ballar tegishli xususiyatlarning yuqori namoyon bo'lish darajalarini anglatadi, yuqori ballar esa, aksincha, ularning past darajada namoyon bo'lishini ifodalaydi.

1-rasmga ko'ra, barmoqlar bir-biriga bog'langanda o'ng bosh barmog'i tepada bo'lgan talaba-yigitlarda o'zini o'zi nazorat qilish ($U=925$; $p<0.05$), iroda ($U=889,5$; $p<0.05$) va o'zini baholash ($U=919$; $p<0.05$) yuqori darajada bo'ladi. Olingan natijalar, ehtimol, o'zini o'zi nazorat qilish, iroda va o'zini baholash kabi shaxs xususiyatlari uchun, asosan, chap bosh barmog'ining ustunligini ta'minlaydigan chap yarimsharning alohida anatomik tuzilmalari javobgar ekanligini ko'rsatadi.

“Napoleonga taqlid” sinoviga ko'ra, qo'llarini ko'kragiga kesib o'tishgan holatda chap tirsagi tepada bo'lgan talaba-yigitlar “analitik fikrlash” shkalasi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishdi ($U=874$, $p<0.05$), bu, ehtimol, ushbu intellektual jarayonlar, asosan, chap tirsakning ustunligini ta'minlaydigan, o'ng yarimsharning neyrofiziologik mexanizmlari bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi (1-rasmga qarang).




1-rasm. B.R.Qodirovning ikki signal tizimining nisbati bo'yicha so'rovnoma shkalalari ko'rsatkichlarini talaba-yigitlarning motor funksional sinovlari (barmoqlarni birlashtirish, Napoleonga taqlid) natijalari bo'yicha taqqoslash.

Talaba-qizlarda B.R.Qodirovning ikki signal tizimining nisbati bo'yicha so'rovnoma shkalalarini qiyosiy tahlil qilish paytida, Mann-Uitni U mezoniga muvofiq 12 funksional sinovning har biri bilan, barmoqlarni birlashtirishda o'ng bosh barmog'ini ustiga qo'yganlarda analitik fikrlashning yuqori darajasi aniqlandi ($U=6066$; $p<0.05$) (2-rasm).

Olingan natijalar analitik fikrlash jarayonlari bosh miyaning o'ng tomonida joylashgan neyrofiziologik mexanizmlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi, degan barchaga ma'lum qoidalar bilan bog'liq.

“Gulduros qarsaklar” funksional sinoviga kelsak, chap kaftini tepaga qo'yishni afzal ko'rgan talaba-qizlarda “O'zini o'zi nazorat qilish” ($U=3779$; $p<0.05$), “Iroda” ($U=3634,5$; $p<0.01$), “O'zini baholash” ($U=3696,5$; $p<0.05$) shkalalari bo'yicha

kuirsatgichlar sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, talaba-qizlarda ikkinchi signal tizimining indikatorlari ko'proq miyaning o'ng yarimshari markazlari tomonidan nazorat qilinadi, bu bizning fikrimizcha jinsga bog'liq (2-rasmga qarang).



2-rasm. B.R.Qodirovning ikki signal tizimining nisbati bo'yicha so'rovnomalar shkalalari ko'rsatkichlarini talaba-qizlarda motor funksional sinovlar (barmoqlarni birlashtirish, gulduros qarsaklar) natijalari bo'yicha taqqoslash.

Ikki signal tizimining nisbati xususiyatlari va funksional asimmetriya individual qiyofasi o'rtasidagi munosabatlarni qiyosiy tahlil qilish bo'yicha olingan ma'lumotlarni umumlashtirib, shuni ta'kidlash kerakki, talaba-qizlar va talaba-yigitlarda o'zini o'zi nazorat qilish, iroda, o'zini baholashi jarayonlari motor sinovlar bo'yicha qarama-qarshi yarimsharlar tomonidan nazorat qilinadi – talaba-yigitlarda chap, talaba-qizlarda o'ng yarimshari. Shu bilan birga, analitik fikrlash uchun talaba-yigitlarda o'ng yarimsharning neyrofiziologik mexanizmlari javobgar bo'lsa, talaba-qizlarda – chap. Olingan natijalar erkaklar va ayollarda psixik jarayonlarni boshqarish miya markazlari lokalizatsiyasi bir-biridan farq qilishi mumkinligi sababli bo'lishi mumkin, bu esa signal tizimlari jarayonlarini nazorat qilishdagi farqni keltirib chiqarishi mumkin.

Ikki signal tizimining emotsional intellekt komponentlari bilan o'zaro bog'liqligini o'rganish uchun B.R.Qodirovning signal tizimlari shkalalari va D.V.Lyusinning emotsional intellekt komponentlari o'rtasida Spirmen mezoniga muvofiq korrelyatsiya tahlili o'tkazildi.

9-jadvalda birinchi signal tizimining shkalalari va emotsional intellekt komponentlari o'rtasidagi Spirmen mezonini bo'yicha korrelyatsion tahlil natijalari taqdim etilgan. Ko'rinib turganidek, "Muloqotchanlik" shkalalari va "Boshqalarning hissiyotlarini tushunish" ($r=-0.296$; $p<0.01$), "Boshqalarning hissiyotlarini boshqarish" ($r=-0.348$; $p<0.01$), "O'z his-tuyg'ularini boshqarish" ($r=-0.236$; $p < 0.01$), "Shaxslararo emotsional intellekt" ($r=-0,363$; $p<0.01$), "His-

tuyg'ularni tushunish" ($r=-0,198$; $p<0.01$), "Hissiyotlarni boshqarish" ($r=-0,255$; $p<0.01$), "Umumiy emotsional intellekt darajasi" ($r=-0,252$; $p<0.01$) kabi emotsional intellekt komponentlari o'rtasida salbiy korrelyatsion bog'liqlik mavjud.

Korrelyatsion tahlil natijalarini talqin qilishni boshlashdan oldin, shuni ta'kidlash kerakki, B.R.Qodirovning ikkita signal tizimining nisbati metodikasi barcha shkalalari uchun teskari o'lchov qo'llaniladi, ya'ni shkalalar bo'yicha past ballar ma'lum bir xususiyatlarning yuqori darajada namoyon bo'lishini anglatadi va yuqori ballar, aksincha, ularning namoyon bo'lish darajasining pastligini ifodalaydi. Shuning uchun, bu yerda B.R.Qodirovning ikkita signal tizimlarining nisbati metodikasining shkalalari va boshqa metodikalar o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari musbat aloqani anglatadi.

Yuqoridagi natijalarga qaytsak, shuni aytishimiz mumkinki, muloqotchanlik qanchalik yuqori bo'lsa, umumiy emotsional intellekt darajasi va uning tarkibiy qismlari shunchalik yuqori bo'ladi. Bizning fikrimizcha, buni muloqotga bo'lgan ehtiyoj, ijtimoiy aloqalarni o'rnatishga bo'lgan moyillik va ularni o'rnatish qobiliyati haqiqatan ham shaxslararo emotsional intellektning turli tarkibiy qismlarida, shu jumladan, o'zining va boshqalarning hissiyotlarini tushunishda, o'zining va boshqalarning hissiyotlarini boshqarishda, hamdardlikda o'z aksini topishi mumkin.

9-jadval

Emotsional intellekt shkalalari va birinchi signal tizimining tarkibiy qismlari o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari (Spirmen mezoni)

Shkalalar	Muloqotchanlik	Faollik	Emotsionallik	Tasvirli xotira	Tasavvur
Boshqalarning hissiyotlarini tushunish	-0,296**	-0,340**	-0,059	-0,182**	-0,019
Boshqalarni his-tuyg'ularini boshqarish	-0,348**	-0,238**	0,080	-0,030	0,055
O'z his-tuyg'ularini tushunish	-0,026	-0,151**	0,347**	0,093	0,192**
O'z his-tuyg'ularini boshqarish	-0,236**	-0,255**	0,307**	-0,028	0,179**
Ekspressiyani nazorat qilish	0,079	-0,054	0,415**	0,054	0,173**
Shaxslararo emotsional intellekt	-0,363**	-0,332**	0,005	-0,133*	0,012
Shaxsning ichki emotsional intellekti	-0,084	-0,204**	0,446**	0,042	0,227**
His-tuyg'ularni tushunish	-0,198**	-0,305**	0,160**	-0,052	0,095
Hissiyotlarni boshqarish	-0,255**	-0,263**	0,339**	-0,019	0,174**
Umumiy emotsional intellekt darajasi	-0,252**	-0,313**	0,271**	-0,043	0,148**

Izoh: * $p<0.05$; ** $p<0.01$.

"Faollik" shkalasi bo'yicha "Boshqalarning hissiyotlarini tushunish" ($r=-0,238$; $p<0.01$), "Boshqalarning hissiyotlarini boshqarish" ($r=-0,255$; $p<0.01$), "O'z his-tuyg'ularini tushunish" ($r=-0,151$; $p<0.01$), "O'z his-tuyg'ularini

